

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

“РЎЙХАТГА ОЛИНДИ”

№ ВМ – 343 – 5А340801 – 2.01

“1” ИЮЛЬ 2003 й.

“ТАСДИҚЛАНДИ”
Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус
таълим вазирлиги

“8” ИЮЛЬ 2003 й.

**BOSHQARUV HISOBI-2
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 –“Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasidagi
5A340901 – “Buxgalteriya hisobi (iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha”
magistratura mutaxassisligi uchun**

Tashkent – 2003

Tuzuvchilar: prof. Hasanov B. A.,
dots. Maxmudov. A.N.
Taqrizchilar: dots. Yormatov I.T.,
dots. Mamatov Z.T.

Respublikamizda buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlar asosida tashkil etish va uni yuritish zarurati «Boshqaruv hisobi-2» fanini magistrantlarga o'qitish taqozo etmoqda.

«Boshqaruv hisobi-2» fanining bu o'quv dasturida uning maqsadi, vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi, Davlat ta'lim standartlariga muvofiq bilim va ko'nikmalar, amaliy va seminar darslari bo'yicha ishlarning minimal miqdori, kompyuter va informatsion texnologiyalarni qo'llash, fan dasturi, amaliy va seminar mashg'ulotlari, kurs ishi mavzularining ro'yxatlari, tavsiya etilayotgan mavzular bo'yicha ko'rgazma-namoyish materiallari, o'quv filmlar va boshqa didaktik materiallar ro'yxati, talabalarning o'zlashtirishini reyting asosida baholash tartibi hamda adabiyotlar ro'yxati o'z aksini topgan.

Необходимость обучения студентов предмету "Управленческий учет-2" заключается в том, что организация бухгалтерского учета в нашей республике требует введения этого предмета. С этой точки зрения используемый бухгалтерский учет делится на финансовый учет и на управленческий учет.

Цель и задачи предмета, связь с остальными предметами, знания и навыки соответствующие Государственному образовательному стандарту, минимальное количество семинаров и практических занятий, применение компьютеров и информационной техники, программа предмета, семинарские занятия, список тем курсовых работ, наглядно-показательные материалы по рекомендуемым темам, список учебных фильмов и других дидактических материалов, контроль успеваемости студентов по рейтинговой системе и список используемой литературы.

The necessity of teaching "Management accounting-2" consists of the organization of Accounting in our republic according to the international standards that require conducting this subject. From this point of view Accounting is divided into the Financial accounting and Management accounting.

The purpose and task of the subject, connection with other subjects, knowledge and skills appropriate to the SSE (Standarts of State Education), minimal quantity of seminars and practical hours, application of computers and technological information, program of the subject, seminar lessons, the list of themes of "course works", visual-indicative materials on recommended themes, the list of educational films and other materials, control of progress of the students on a rating system and the list of literature for usage.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel, 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul, 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish to'g'risida»gi Farmonida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini hayotga tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgust 343-sonli Qaroriga muvofiq Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi. Mazkur standartlar har bir o'qitiladigan fanlar uchun dasturlar tayyorlashni taqozo etadi. "Boshqaruv hisobi-2" fani bo'yicha qo'yilgan barcha talablar asosida tuzilgan bo'lib, 5A340901 -«Buxgalteriya hisobi», 5A340902 - «Audit» mutaxassisligi magistrantlari uchun mo'ljallangan.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish hamda bozor munosabatlarining rivojlanishi sharoitida malakali buxgalter va auditorlarni tayyorlash muhim hisoblanadi.

Bu fanni o'rganishdan maqsad bo'lg'usi mutaxassislardan tadbirkorlik faoliyatida boshqaruv hisobini tashkil qilish, korxonani tezkor boshqarish, ish faoliyati natijalarini baholash va tezkor nazoratni amalga oshirish, rejalashtirish va korxonani rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab olish bo'yicha nazariy bilimlarni va amaliy tajribalarini shakllantirishdan iboratdir.

"Boshqaruv hisobi-2" fanini o'qitish jarayonida quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- boshqaruv hisobi uchun zarur bo'lgan va uni qo'llash talablariga javob beradigan axborot-nazorat tizimini tashkil qilish;
- boshqaruvchi xodimlar (menejer) hamda sarmoyadorlarga ular talabiga javob beradigan ma'lumotlar tayyorlash, taqdim qilish va h.k.

"Boshqaruv hisobi-2" fani quyidagi mutaxassislik fanlar bilan bevosita bog'liqlikda o'rganiladi: «Tashqi iqtisodiy faoliyat va valyuta operatsiyalari hisobi»; «Xalqaro audit tizimi»; «Moliyaviy tahlil-2»; «Amaliy audit»; «Byudjet hisobi va hisoboti»; «Moliyaviy hisob-2»; «Davlat soliqlari va yig'implari»; «Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari»; «Moliya matematikasi»; «Byudjet hisobi va hisoboti».

Fan bo'yicha magistrantlarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

Davlat ta'lim standartlariga asosan mazkur mutaxassislik bo'yicha o'qiydigan magistrantlarga «Boshqaruv hisobi» fanini chuqur o'rganishi hamda etuk mutaxassis bo'lishi uchun quyidagi talablar qo'yilgan:

- huquqiy, demokratik jamiyat yoshlari, ayniqsa, buxgalter, auditor mutaxassisligini egallovchi talabalar huquqshunoslik, davlat va jamiyat qurilishi fanlarini chuqur egallagan bo'lishi;
- bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillari va qonuniyatlarini mukammal o'rganishi;
- mutaxassislik fani bilan bog'liq fanlarni mukammal o'rganishi;
- fan va texnika yutuqlariga qiziquvchan o'ziga nisbatan talabchan, Vataniga fidoyi bo'lishi kerak.

Fanni o'rgatishda mutaxassislik kafedra professor-o'qituvchilari talabalarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otishi, har bir talabaning bilim saviyasi va individual xarakteriga qarab vazifa berishi hamda talab qilish san'atiga ega bo'lishi lozim.

Bu fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi

"Boshqaruv hisobi-2" fani xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishlab chiqirish faoliyatini hisobga olishda o'z uslubiyatiga ega bo'lishi bilan birgalikda quyidagi fanlar bilan ham bevosita bog'liqligi tufayli bu fanlar ham magistrantlarga chuqur o'rgatiladi: «Moliyaviy hisob-2», «Xalqaro audit tizimi», «Amaliy audit», «Byudjet hisobi va hisoboti», «Moliyaviy hisob-2», «Davlat soliqlari va yig'implari», «Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari», «Investitsiyalar auditi va uni baholash», «Moliya matematikasi».

Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar

Magistrantlarga fanni zamonaviy usullarda o'rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimlarini mustaqil ravishda baholashlari uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

- magistrantlarni tarqatma materiallar bilan ta'minlash;
- magistrantga o'z bilimini o'zi baholashi uchun sharoit yaratib berish;
- magistrant bilimini tayanch iboralar asosida baholashni joriy qilish;

- magistrantlarni kichik guruhlarga bo'lib, professor-o'qituvchi rahbarligida mustaqil bilim olishga o'rgatish;
- iqtidorli magistrantlar bilan qo'shimcha darslar tashkil qilish;
- magistrantlarda «1S:Buxgalteriya», «Turbo-Buxgalteriya» va boshqa dasturlar bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish.

Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar

"Boshqaruv hisobi-2" fani o'quv reja bo'yicha 4-semestrda o'qitiladi.

"Boshqaruv hisobi-2" fani ma'ruza va amaliy mashg'ulot shaklida amalga oshiriladi. Auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun korxonada va xo'jaliklarda amaliyot o'tish ko'zda tutilgan. Magistrantlarning bilimlari professor-o'qituvchilar tomonidan belgilangan hay'at a'zolari tomonidan reyting usulida baholanadi.

Magistrantlarning mustaqil o'rganishi uchun mavzular bo'yicha uy vazifalari beriladi, ularning bajarilganligi reyting baholashda hisobga olinadi. Magistrantlarning bilimlarini aniqlashda reyting usullari qo'llaniladi.

Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha soatlar hajmi

"Boshqaruv hisobi-2" fanini o'rganish bo'yicha o'quv rejasida jami 108 soat belgilangan. Shundan: ma'ruza - 36, amaliy mashg'ulot - 36, mustaqil ta'lim - 36 soatdan iborat.

2. FAN DASTURI

Ma'ruza mashg'ulotlarining mavzulari

Boshqaruv hisobi fanining predmeti, vazifalari va tamoyillari, tadqiqot usullari

Boshqaruv hisobi haqida tushuncha. Uning mazmuni, ahamiyati va tamoyillari. Ishlab chiqarish hisobi - boshqaruv hisobining asosiy tarkibi ekanligi. Boshqaruv hisobining oldiga qo'yilgan vazifalar. Boshqaruv hisobini tashkil qilish muammolari. Boshqaruv hisobining boshqaruvchilarni iqtisodiy axborotlar bilan ta'minlashdagi roli. Boshqaruv hisobini to'g'ri tashkil qilish, uning moliyaviy hisobning to'g'ri tashkil qilinishi va yuritilishidagi roli. Boshqaruv hisobning moliyaviy hisobot bilan bog'liqligi. Boshqaruv hisobi ma'lumotlarining joriy va sir saqlanish tartibi. Boshqaruv hisobini tashkil qilishning korxonada buxgalteriya hisobini yuritish siyosatiga to'g'ri kelishi. Boshqaruv hisobi, moliyaviy hisob va soliq bo'yicha hisob-kitoblar: umumiylik va alohidalik.

Xarajatlar va ularning turkumlanishi

Xarajatlar haqida tushuncha. *Xarajatlarning turli xil belgilarga ko'ra turkumlanishi. Ishlab chiqarish va davr xarajatlari.* Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq xarajatlarning guruhlanishi. Marjinal daromad xaqida tushuncha. «Xarajat-ishlab chiqarish hajmi-foyda» (CVP-analysis) o'zaro bog'liqligi tahlili. Zararsizlik (kritik) nuqtasini aniqlash. CVP-tahlilining asosiy muammolari.

Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini hisobga olish

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish - boshqaruv hisobining tarkibiy qismi ekanligi. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobining vazifalari. *Ishlab chiqarish xarajatlarini turkumlash.* Ishlab chiqarish xarajatlari hisobiga texnologiyaning ta'siri. Texnologik jarayonga

qarab ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish. Ishlab chiqarish xarajatlarini asosiy, yordamchi ishlab chiqarish bo'yicha, xizmat ko'rsatuvchi, kommunikatsiya xizmati bo'yicha hisobga olishni tashkil qilish.

Ishlab chiqarish xarajatlarini xarajat turlari bo'yicha, ishlab chiqariladigan mahsulotlar, bajariladigan xizmatlar bo'yicha, xarajat moddalari va xarajat elementlariga muvofiq tashkil qilish. Xarajatlarni hisobga olishni tayyor mahsulotlar, tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha tashkil qilish. Xarajatlarni hisobga olishni bo'linmalar bo'yicha tashkil qilish. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha tannarxga qo'shiladigan xarajatlarni umumlashtirish, moliyaviy natijalarni shakllantirishni ta'minlash. "Direkt-kost" usulida xarajatlarni hisobga olish tizimi. Mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilishning buyurtmali usuli. Mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilishning normativ usuli.

Rejalashtirish va byudjetlashtirish

Byudjetlashtirish-boshqarishning asosiy vazifasidir. Joriy va istiqbolli byudjetlashtirishning mazmuni hamda vazifalari. Korxonaning umumiy byudjetini tayyorlash va tasdiqlash tartibi. Strategik rejalashtirish. *Joriy va moliyaviy byudjetlar*. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulotlar hajmini aniqlash muammolari. "Nol" ko'rinishidagi, davriy va o'suvchi byudjetlar.

Xarajatlarni hisobga olishning normativ usuli («Standart-kost» tizimi) va chetlanish (og'ishish)lar tahlili

Normativ hisob, uning maqsadi, mohiyati va ahamiyati. *O'zbekistonda xarajatlarni hisobga olishning normativ usulini G'arb davlatlardagi «Standart-kost» usuli bilan taqqoslash*. Normativ usulning tamoyillari va ularning turkumlanishi. Umumishlab chiqarish xarajatlaridagi chetlanishlar bo'yicha ikki va uch bosqichdagi tahlil. Buxgalteriya hisobi registrlarida normativ xarajatlarni aks ettirish.

Boshqaruv hisobida tahlil

Boshqaruv hisobida tahlilning maqsadi. Tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar. Umumiy ko'rsatkichlar, foydaning aktivlarga nisbati, foydaning investitsiyalangan aktivlarga nisbati, rentabellik ko'rsatkichlari, brutto foyda, foyda me'yori, bir dona aktsiyaga to'g'ri keladigan foyda, sarmoyadan foydalanish ko'rsatkichlari. Aktivlarning aylanishi, investitsiyalangan kapitalning aylanishi, hissadorlik kapitalining aylanishi. Zahiralarni saqlash davri va aylanishi. Moliyaviy holatni baholovchi ko'rsatkichlar. To'lov qobiliyati. Foizlarni to'lash. Debitorlik qarzlarning qaytishi. Mahsulot ishlab chiqarish natijasida zarar ko'rmaslik darajasini tahlil qilish. Iqtisodiy model, buxgalteriya modeli, matematik model. Zararsizlik chegarasi, tushum, daromad, foyda, ishlab chiqarish grafiklaridan foydalanib zararsizlik grafigini tuzish.

Boshqaruv hisobi ma'lumotlari asosida qarorlarini qabul qilish

Ishlab chiqarish xavfsizligini tahlil qilish. Ma'lumotlardan foydalanish. Bahoga tegishli bo'lgan qarorlar qabul qilish. Qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish mumkin bo'lgan bahosini aniqlash. Mahsulot bahosini pasaytirib, ishlab chiqarish hajmini oshirish hisobiga foydani saqlab qolish to'g'risida qaror qabul qilish.

Mahsulot sotish bilan bog'liq xarajatlar hisobi

Tayyor mahsulot haqida tushuncha, uni omborga qabul qilish tartib, baholash va buxgalteriyadagi sintetik hisobi.

Mahsulot sotishda marketing faoliyatining vazifalari va taqdim etadigan ma'lumotlardan boshqaruv hisobida foydalanish. Mahsulotni sotishda baho o'rnatish tartibi. Baholarning turlari: rasmiy, tartibga solinadigan. shartnoma. Mahsulot sotishning analitik va sintetik hisobi. Moliyaviy natijalarni aniqlash. Mahsulot ishlab chiqarish va foyda olish kontseptsiyasi.

Xo'jalik sub'ektlarida boshqaruv hisobini tashkil etish

Korxonalarining tashkiliy tuzilishi. Markazlashgan va markazlashmagan boshqaruv. Javobgarlik markazi bo'yicha boshqaruvni tashkil etish. Javobgarlik markazlarining turlari. Axborotlarning ichki oqimi va hujjatlar aylanishi. Axborotlar tizimlarining integratsiyalashuvi. Ichki xo'jalik tizimi hisobotlari va biznes segmentlari. Buxgalteriya va boshqaruv nazorati. *Buxgalteriya hisobini moliyaviy hisob va boshqaruv hisobiga ajratish, boshqaruv hisobini tarmoq xususiyatini hisobga olgan holda tashkil qilish.*

Boshqaruv uchun zarur ma'lumotlarga bo'lgan talab va taklifni o'rganish hamda tahlil qilish, tarmoq xususiyatini har tomonlama o'rganish asosida xarajatlarni vujudga kelish markazlari va ma'suliyat markazlarini shakllantirish, boshqaruv hisobini qulay tashkil qilish maqsadida xarajatlarni korxonada bo'yicha uning bo'limlari, vujudga kelish markazlari, ma'suliyat markazlari bo'yicha guruhlash va boshqalar.

Boshqaruv hisobida texnologiyalar va yo'nalishlar

Ishlab chiqarishning yangi sharoitlari: to'liq avtomatlashtirish va bir xil me'yordagi «muddatida aniq». LT-falsafasi (Just-in-Time/muddatida aniq). Korxonalarda LT usulini tadbiiq qilish muammolari: zahiralarni minimal darajada ushlab turish, ishlab chiqarish liniyalari. Ishchi va xizmatchilarning yuqori malakasi, mahsulotlar va xizmatlarning sifati va h.k. LT-tizimida xarajatlarni hisobga olish va ularni an'anaviy usullar bilan taqqoslash. AVS-kosting (AVS-Costing) faoliyatida xarajatlarni hisobga olish. Mahsulot va xizmatlar sifatidagi o'zgarishlar bo'yicha muammolar (TQM – Total Quality Management).

Amaliy va seminar mashg'ulotlari mavzularining mazmuni

Boshqaruv hisobi fanining predmeti, tadqiqot usullari, vazifalari va tamoyillari

Boshqaruv hisobi haqida tushuncha, uning mazmuni, va tamoyillari. Ishlab chiqarish hisobi-boshqaruv hisobining asosiy tarkibi ekanligi. Boshqaruv hisobining oldiga qo'yilgan vazifalar. Boshqaruv hisobini tashkil qilish muammolari. Boshqaruv hisobining boshqaruvchilarni iqtisodiy axborotlar bilan ta'minlashdagi roli. Boshqaruv hisobini to'g'ri tashkil qilish, moliyaviy hisobning to'g'ri tashkil qilinishi va yuritilishidagi roli. Boshqaruv hisobining moliyaviy hisobot bilan bog'liqligi. Boshqaruv hisobi ma'lumotlarining joriy va sir saqlanish tartibi. Boshqaruv hisobini tashkil qilishning korxonada buxgalteriya hisobini yuritish siyosatiga to'g'ri kelishi. Boshqaruv hisobi, moliyaviy hisob va soliq bo'yicha hisob-kitoblarda umumiylik va alohidalik.*

Xarajatlar va ularni turkumlanishi

Xarajatlar haqida tushuncha. Ishlab chiqarish va davr xarajatlari. Xarajatlarning turli xil belgilarga ko'ra turkumlanishi. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq xarajatlarni guruhlanishi. Marjinal daromad haqida tushuncha*. «Xarajat-ishlab chiqarish hajmi-foйда» (CVP-analysis) o'zaryu bog'liqligi tahlili. Zararsizlik (kritik) nuqtani aniqlash. CVP-tahlilining asosiy muammolarini ochib berish.

Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini hisobga olish

Boshqaruv hisobida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishning ahamiyati va zaruriyati. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobining vazifalari. Ishlab chiqarish xarajatlarini turkumlarga ajratish.* Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda texnologiyaning ta'siri. Texnologik jarayonga qarab ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish. Ishlab chiqarish xarajatlarini asosiy, yordamchi ishlab chiqarish bo'yicha, xizmat ko'rsatuvchi, kommunikatsiya xizmati bo'yicha hisobga olishni tashkil qilish. Ishlab chiqarish xarajatlarini xarajat turlari bo'yicha, ishlab chiqariladigan mahsulotlar, bajariladigan xizmatlar bo'yicha, xarajat moddalari va xarajat elementlariga muvofiq tashkil qilish. Xarajatlarni hisobga olishni tayyor mahsulotlar, tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha tashkil qilish. Xarajatlarni hisobga olishni bo'linmalar bo'yicha tashkil qilish. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha tannarxga qo'shiladigan xarajatlarni umumlashtirish, moliyaviy natijalarni shakllantirishni ta'minlash. "Direkt-kost" usulida xarajatlarni hisobga olish tizimi.* Mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilishning buyurtmali usuli. Mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilishning normativ usuli. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullarini amaliy ma'lumotlar asosida yoritib berish.

Rejalashtirish va Byudjetlashtirish

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida byudjetlashtirish-boshqarishning asosiy vazifasidir. Joriy va istiqbolli byudjetlashtirishning mazmuni, vazifalari. Korxonaning umumiy byudjetini tayyorlash va tasdiqlash tartibi.* Strategik rejalashtirish. Joriy va moliyaviy byudjetlar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulotlar hajmini aniqlash muammolari. "NoI" ko'rinishidagi, davriy va o'suvchi byudjetlar.

Xarajatlarni hisobga olishning normativ usuli («Standart-kost» tizimi) va chetlanish (og'ishish)lar tahlili

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishda normativ hisob uning maqsadi, mohiyati va ahamiyati. O'zbekistonda xarajatlarni hisobga olishning normativ usulini G'arb davlatlardagi «Standart-kost» usuli bilan taqqoslash.* Normativ usulning tamoyillari va ularning turkumlanishi. Umumishlab chiqarish xarajatlaridagi chetlanishlar bo'yicha ikki va uch bosqichdagi tahlil. Buxgalteriya hisobi registrarida normativ xarajatlarni aks ettirish. Amaliy ma'lumotlar asosida normativ usulning qo'llanilishi.

Boshqaruv hisobida tahlil qilish

Boshqaruv hisobida tahlilning maqsadi. o'zni va ahamiyati. Tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar. Umumiy ko'rsatkichlar, foydaning aktivlarga, investitsiyalangan aktivlarga nisbati, rentabellik ko'rsatkichlari, brutto foyda, foyda me'yori, bir dona aktsiyaga to'g'ri keladigan foyda, sarmoyadan foydalanish ko'rsatkichlari. Aktivlarning aylanishi, investitsiyalangan kapitalning aylanishi, hissadorlik kapitalining aylanishi. Zahiralarini saqlash davri va aylanishi.* Moliyaviy holatni baholovchi ko'rsatkichlar. To'lov qobiliyati. Foizlarni to'lash. Debitorlik qarzlarning qaytishi. Mahsulot ishlab chiqarish natijasida zarar ko'rmaslik darajasini tahlil qilish. Iqtisodiy model, buxgalteriya modeli, matematik model. Zararsizlik chegarasi, tushum, daromad, foyda, ishlab chiqarish grafiklaridan foydalanib zararsizlik grafigini tuzish.

Boshqaruv hisobi ma'lumotlari asosida qarorlarini qabul qilish

Boshqaruv hisobida ishlab chiqarish xavfsizligini tahlil qilish*. Ma'lumotlardan foydalanish. Bahoga tegishli bo'lgan qarorlar qabul qilish. Qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish mumkin bo'lgan bahoni aniqlash. Mahsulot bahosini pasaytirib, ishlab chiqarishni hajmini oshirish hisobiga foydani saqlab qolish to'g'risida qaror qabul qilish.

Mahsulot sotish bilan bog'liq xarajatlar hisobi

Korxonada mahsulot haqida tushuncha, uning omborga qabul qilish tartibi, baholash va buxgalteriyadagi sintetik hisobi.

Mahsulot sotishda marketing faoliyatining vazifalari va taqdim etadigan ma'lumotlardan boshqaruv hisobida foydalanish.* Mahsulotni sotishda baho o'rnatish tartibi. Baholarning turlari: rasmiy, tartibga solinadigan, shartnoma. Mahsulot sotishning analitik va sintetik hisobi. Moliyaviy natijalarni aniqlash. Mahsulot ishlab chiqarish va foyda olish kontseptsiyasi.

Xo'jalik sub'ektlarida boshqaruv hisobini tashkil etish muammolari

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy tuzilishi. Markazlashgan va markazlashmagan boshqaruv. Javobgarlik markazi bo'yicha boshqaruvni tashkil etish.* Javobgarlik markazlarining turlari. Axborotlarning ichki oqimi va hujjatlar aylanishi. Axborot tizimlarining integratsiyalashuvi. Ichki xo'jalik tizimi hisobotlari va biznes segmentlari. Buxgalteriya va boshqaruv nazorati. Buxgalteriya hisobining moliyaviy hisob va boshqaruv hisobiga ajratish, boshqaruv hisobini tarmoq xususiyatini hisobga olgan holda tashkil qilish, boshqaruv uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarga bo'lgan talab va taklifni o'rganish hamda tahlil qilish, tarmoq xususiyatini har tomonlama o'rganish asosida xarajatlarning vujudga kelish markazlari va ma'suliyat markazlarini shakllantirish, boshqaruv hisobini qulay tashkil qilish maqsadida xarajatlarni korxonada bo'yicha uning bo'limlari, vujudga kelish markazlari, ma'suliyat markazlari bo'yicha guruhlash va boshqalar. Korporativ boshqaruvni qo'llash muammolarini bayon qilish.

Boshqaruv hisobida texnologiyalar va yo'nalishlar

Ishlab chiqarishning yangi sharoitlari: to'liq avtomatlashtirish va bir xil me'yordagi «muddatida aniq». LT-falsafasi (Just-in-Time/muddatida aniq). Korxonalarda LT usulini tadbiiq qilish muammolari*: zahiralarini minimal darajada ushlab turish, ishlab chiqarish liniyalari, Ishchi va xizmatchilarning yuqori malakasi, mahsulotlar va xizmatlarning sifati va h.k. LT-tizimida xarajatlarni hisobga olish va ularni an'anaviy usullar bilan taqqoslash. AVS-kosting

(AVS-Costing) faoliyatida xarajatlarni hisobga olish.* Mahsulot va xizmatlar sifatidagi o'zgarishlar bo'yicha muammolar (TQM-Total Quality Management).

Kurs ishlarining mavzulari va ularni bajarilishga oid uslubiy ko'rsatmalar

Kurs ishi mavzulari:

1. Boshqaruv hisobining mazmuni va ahamiyati.
2. Boshqaruv hisobining nazariy asoslari.
3. Xarajatlar va ularning turkumlanishi.
4. Ishlab chiqarish zaxiralari va ularni turkumlash.
5. Mahsulotni sotish va u bilan bog'liq xarajatlar.
6. Boshqaruv nazorati va uning vazifalari.
7. Ichki hisobot tizimi.
8. Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobining roli.
9. Xo'jalik sub'ektlarida buxgalteriya hisobining o'rni va vazifalari.
10. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobini isloh qilish.
11. Buxgalteriya hisobining tamoyillari.
12. Boshqaruv hisobi, uning roli va vazifalari.
13. O'zbekiston Respublikasida xalqaro buxgalteriya hisobi standartlariga o'tish muammolari.
14. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari.
15. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish.
16. To'g'ri va egri xarajatlar hisobi.
17. Davr xarajatlari hisobi.
18. Ishlab chiqarish xarajatlarini normativ usulda hisobga olish.
19. Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil qilish.
20. Tayyor mahsulotlar hisobi.
21. Mahsulotlarni sotish hisobi.
22. To'g'ri soliqlar yuzasidan hisoblashishlar hisobi.
23. Egri soliqlar bo'yicha hisoblashishlar.
24. «Direkt-Kosting» va «Standart-Kosting» tizimlarining xususiyatlari.
25. Boshqaruv hisobida qaror qabul qilish jarayoni.

Magistrantlar mutaxassislik fani bo'yicha olgan nazariy

bilimlari hamda amaliyotda orttirgan tajribalariga asoslanib o'zining ilmiy salohiyatini aniqlash, o'zini qiziqtirgan mavzusini chuqurroq o'rganish maqsadida kurs ishi yozadi. Kurs ishini yozganda yuqorida keltirilgan mavzulardan birini tanlab oladi. Mavzuni tanlash ixtiyoriy bo'lib, kurs ishini yozish majburiydir. Kurs ishi yozilishiga talablar, Uni yozish va himoya qilish bo'yicha uslubiy qo'llanmada batafsil yoritilib berilgan. Kafedra tomonidan kurs ishlari mavzulari har yili yangilanib va to'ldirilib boriladi.

3. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHQA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI

"Boshqaruv hisobi-2" fanini o'rganuvchi magistrantlar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida, o'quv rejasiga muvofiq mustaqil ta'lim oladi.

"Boshqaruv hisobi-2" fanini o'rganishda talabalar amaliy yordam tariqasida boshqaruv hisobi bo'yicha qo'llaniladigan turli xildagi shakllar, chizmalar, slaydalar bilan ta'minlanadi. Unda: «Xarajat-ishlab chiqarish hajmi-foyda» (CVP-analysis); Xarajatlarni turkumlash; O'zgaruvchi va o'zgarmas xarajatlar; Kalkulyatsiya usullari; To'g'ri va egri xarajatlar; "Standart-kost" tizimi va uning mohiyati; "Direkt-kost" tizimi va uning mohiyati; LT-falsafasi (Just-in-Time); AVS-kosting (AVS-Costing) faoliyatida xarajatlarni hisobga olish. Mahsulotlarni sotish bilan bog'liq xarajatlar. Davr xarajatlari; Diskret xarajatlarni o'rganish mumkin.

Magistrant "Boshqaruv hisobi-2" fanini o'rganishda axborot vositalaridan ya'ni internet tizimidan ham keng foydalanadi. Unda quyidagi sayd va elektron pochtalardan foydalanishi mumkin:

<http://www.apb.org.uk> (Auditing Practices Board);
<http://www.nao.gov.uk> (UK National Audit Office);
<http://www.iaa.org.uk> (The Institute of Internal Auditors-United Kingdom);
<http://www.iasc.org.uk> (International Accounting Standards Committee);
<http://www.aicpa.org/index.htm> (American Institute of Certified Public Accountants);
www.uza.us.aph (O'MA turli sohalariga doir kundalik va yangiliklari);
www.uzreport.com (Kundalik biznes yangiliklari);
www.referat.ru (Referatlar to'plami).

Shuningdek, mamlakatda chop etilgan gazeta va iqtisodiy yo'nalishdagi jurnallardan mutaxassisligiga tegishli materiallarni oladi.

Magistrantga O'zbekiston Respublikasi auditorlar palatasi, O'zbekiston Respublikasi Buxgalterlar va Auditorlar milliy assotsiatsiyasi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent Moliya institutida tayyorlangan o'quv filmlar, didaktik materiallar va multimediya ilovalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

4. O'ZLASH TIRISH NAZORATI

Magistrantlarning fan bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi; joriy, oraliq baholash va yakuniy baholash. Joriy va oraliq baholashga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70, yakuniy baholashga esa 30% miqdorda belgilanadi. «Boshqaruv hisobi-2» fanidan magistrant to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball 72 ga teng bo'lib, u joriy, oraliq va yakuniy baholashga ajratiladi. Joriy va oraliq baholash turlariga belgilangan ballar quyidagi holatlarda qo'yiladi:

- magistrantning o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- fan bo'yicha asosiy manbalarni konspektlashtirish;
- dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozish;
- ilmiy tezislarni tayyorlash;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarish;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlash.

Tayanch tushunchalarga asoslangan «yozma ish» o'tkazish tartibi «Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida «Yozma ish» usulini tadbiiq etish bo'yicha Namunaviy Nizom» bilan belgilanadi. Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plangan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86 - 100 foiz «a'lo»;
- 71-85 foiz «yaxshi»;
- 55 - 70 foiz «qoniqarli»;
- 55 foizdan kam «qoniqarsiz».

5.ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni. // Xalq so'zi, 1996.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli Qarori «Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom. T., «O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari», 1999.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 1997 yil 15 yanvar 5-son buyrug'i (1997 yillik va yarim yillik hisoboti to'ldirish to'g'risida). T., «O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari», 1997.
4. Bobojonov O.U. Moliyaviy hisob. -T.: «Mehnat», 1999.
5. Druri K. Vvedenie v upravlencheskiy i proizvodstvenny uchyot - M.: Audit, 1994.
6. Karpova T.P. Osnovi upravlencheskogo uchyota: Uchebnoe posobie. -M.: INFRA-M, 1997.
7. Myullendorf R., Korrenbauer M., Proizvodstvenniy uchet. -M.: ZAO «FBK» press, 1996.
8. Paliy V.F. Upravlencheskiy uchet. -M.: Soyuzaudit, 1997.
9. Rizaqulov A.A. Uzoq muddatli aktivlar hisobi. -T.: «Fan», 1998.
10. Rizaqulov A.A., Ibrohimov A.K., Hasanov B.A., Usanov A.U., Mamatov Z.T. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari. I-III tom. TMI va IUT, 1994.
11. O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari to'plamlari. 2001-2002.
12. Xonrgren Ch.T., Foster Dj. Buxgalterskiy uchet: upravlencheskiy aspekt. -M.: Finansi i statistika, 1995.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Nikolaeva S.A. Osobennosti ucheta zatrat v usloviyax rnka: sistema «direkt kosting». -M.: Finansi i statistika, 1993.
2. Nidlz B., Anderson X., Kolduell D. Printsipi buxgalterskogo ucheta. -M.: Finansi i statistika, 1993.
3. Ibragimov A., Karimov A. Xorij sarmoyalari buxgalteriya hisobi, -T.: O'zbekiston, 1999.
4. Pankov D. Buxgalterskiy uchet i analiz v zarubejnix stranax. M: «Ekoperespektiva», 1998.
5. Nikolaeva O. Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti: -M.: URSS, 2001.
6. Sanaev N.S. «Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi, nazorat va moliyalashning dolzarb masalalari». -T.: »Mehnat» 1991.
7. Soliqlar va bojxona xabarlar gazetasi, 2001-2002.
8. Sotivoldiev A.S. «Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi». -T.: Mehnat 1991.
9. Chaya V., Chaya G. Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti. -M.: GUP IPK «Ulyanovskiy Dom pečhati», 2000.
10. Entoni R. Ris D. Uchet situatsii i primeri. -M.: Finansi i statistika, 1993.
11. Frenk Vud. Buxgalterskiy uchet dlya predprinimateley. -M.; OOO Askeri, 1996 g.
12. G'ulomova F. Samouchitel po buxgalterskomu uchetu. -T.: Mir ekonomiki i prava, 2000.
13. Fremgen F.M. Accounting for managerial Analysis: Third Edition. Richard D. Irwing Inc., Homewood, Illions, 1996.
14. Kenneth M. Morris & Allan M. Siegel. Guide to understanding money & investing. 2000 by lightbulb, press, Inc.
15. Securities Regulation in THE Unite States. NASD. Washington, 2000.
16. The Istanbul Stock Exchange In a Historical Perspective. Written by Pfor. Haydar Kazgan/ published by ISE - Istanbul, 1999.
17. The Work Of SEC. U.S. Securities and Exange Comisssion, 1999.
18. Cost accounting (a managerial emphasis) / USA. Mexico. Or Canada, 2001.
19. Financial accounting / USA. Mexico. Or Canada, 2001.